

O`zbekiston Res`ublikasi Oliy va O`rta mahsus  
ta`lim vazirligi  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

**“Buhalteriya hisobi va audit” fakulteti**

**“Iqtisodiy tahlil va audit” kafedrası**

# ***K U R S I S H I***


МаВЗУ: Kapitallar, maqsadli tushumlar hisobi va auditi

**Toshkent --2012**

“Iqtisodiy tahlil va audit” kafedrası

“ \_\_\_\_\_ ” “ \_\_\_\_\_ ” 2012 y

Mavzu: Kapitallar, maqsadli tushumlar hisobi va auditi



Toshkent - 2012

## R E J A

### KIRISH

Asosiy qism:

1. Ustav, qo‘shilgan va rezerv kapitalining hisobi
2. Maqsadli tushumlarning hisobi.
3. Kutilayotgan harajatlarni va to‘lovlar uchun rezervlarning hisobi.

Texnologik qism:

4. Kapital va maqsadli tushumlar auditi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

## **Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xar bir ho`jalik yurituvchi subhekt o`zining moliyaviy resurs (mablag`)larini tashkil qilishi va undan foydalanishi mumkin. Bu mablag`larning manbai esa foyda, amortizatsiya ajratmasi, qimmatbaho qog`ozlarni sotishdan tushgan mablag`lar, aktsiya egalarining badali va tahsischilarning ulushlari, kreditlar, qarzarlar, ajratilgan grantlar, maqsadli moliyalashtirish mablag`lari va shunga o`xshash yo`nalishdagi mablag`lardir.

Bu bo`limda asosan subhektning ustav kapitali, mahsus yo`nalishdagi jamg`armalar, zahiralar, foyda va boshqa mablag`lari o`rganiladi.

Subhektning xususiy kapitali qonunga muvofiq yoki tahsis xujjatlari asosida yaratilgan jamg`armalar va zahiralar qo`shilgan holda, ularning xarakati va holati o`rganiladi va nazorat qilinadi.

Xususiy kapital ho`jalik yurituvchi subhektning aktivi va majburiyatlari o`rtasidagi farqni o`zida mujassamlashtiradi. O`z navbatida xususiy kapital 2 guruxga (kategoriyaga) bo`linadi – qo`yilgan (investitsiya) kapital va taqsimlanmagan foyda.

Xususiy kapital, ishlab chiqarish va mulk egasiga to`lash, qo`shimcha investitsiya va boshqa faoliyatlarning natijalariga bog`liq holda ko`payishi yoki kamayishi mumkin.

Ushbu mulk, jamg`armalar, foyda va zahiralarining hisobi quyidagi:

8300-«Ustav kapitali (fondi)»ni hisobga oluvchi schyotlar

8400-«Qo`shilgan kapital»ni hisobga oluvchi schyotlar

8500-«Zahira kapitali»ni hisobga oluvchi schyotlar

8600-«Sotib olingan o`z aktsiyalari»ni hisobga oluvchi schyotlar

8700-«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)»larni hisobga oluvchi schyotlar

8800-«Grantlar va subsidiyalar (kapital)»ni hisobga oluvchi schyotlar

8900-«Kelgusi xarajatlar va to`lovlarning zahirasi»ni hisobga oluvchi schyotlarda yuritiladi.

Subhektning ustav kapitali uning mablag`larining tashkil bo`lishida asosiy manba hisoblanadi. Bu kapitalni tashkil qilish qonun va tahsis xujjatlariga asosan tartibga solinadi.

Davlat korxonalarining ustav kapitali davlatning byudjeti tomonidan korxonaning foydalanilishiga topshirilgan vaqtda ajratilgan mablag`larning yigindisidir.

Nodavlat, kommertsiya subhektlarining kapitali esa aktsiyadorlar tomonidan kuyilgan mablag`larning yigindisiga teng bo`ladi.

Aktsiyadorlar jamiyati (AJ) yuridik shaxs bo`lib uning kapitali aktsiya egalarining qo`ygann ulushidan tashkil topgan. AJ faoliyati ustavi bilan tartibga solinadi va aktsiyadorlar faqat ustav kapitaliga qo`yadigan ulushi bo`yicha majburiyat oladilar.

AJ-ochiq va yopiq turda bo`ladi. Ochiq AJ aktsiyalari ochiq usulda sotiladi, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o`tadi, yahni qimmatbaho qog`ozlar birjasida sotilishi mumkin. Yopiq AJ aktsiyalar bozorga chiqarilmaydi, bundan tashkari uz ulushlarini boshqa aktsiyadorlarning roziligisiz sotishi mumkin emas. AJ ustav kapitalining xajmi uning ustavida ko`rsatilgan bo`ladi. Ustav kapitalining ko`payishi yoki kamayishi aktsiyaning nominal qiymatining bozordagi talab va taklifning tahsirida oshishi yoki kamayishiga bog`liq. AJ tomonidan chiqarilgan aktsiyalar naqd pulga, pul utkazish yuli bilan, mulkka, yahni uzok va kiska muddatli aktivlar hisobiga xam sotilishi mumkin.

Ustav kapitali (fondi)ning holati va xarakati to`g`risidagi mahlumotlarni umumlashtirish quyidagi:

8310-«Oddiy aktsiyalar»

8320-«Imtiyozli aktsiyalar»

8330-«Ulushlar va omonatlar» schyotlarida amalga oshiriladi.

## **1. Ustav, qo‘shilgan va rezerv kapitalining hisobi**

Korxonalar xususiy kapitalining muhim turi bo‘lib ustav kapitali hisoblanadi.

Ustav kapitali deganda korxonaning ta‘sischilari tomonidan unga kiritiladigan mablag‘lar majmuasi, shuningdek chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig‘indisi tushuniladi. Ustav kapitalining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Ustav kapitalining miqdori korxonaning ustavi va ta‘sis shartnomasiga muvofiq belgilanadi va nisbatan doimiy harakterga ega bo‘ladi. Uning birlamchi miqdorini o‘zgarishi faqat korxonaning ustavini davlat qaydnomasidan qayta o‘tqazish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

- Ustav kapitalini haqiqatda shakllantirish vaqt bo‘yicha chegeralanadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq korxonalar ustav kapitalini shakllantirishning oxirgi muddati bo‘lib ta‘sis etilgan sanadan boshlab bir tavqim yil hisoblanadi. Ushbu muddatda o‘z ustav kapitalini shakllantirmagan korxonalar yuridik statusini yo‘qotadi va tugatiladi.

- Ustav kapitali korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllariga va mulk shakllariga bog‘liqdir. Davlat korxonalarida ustav kapitali unga davlat tomonidan birkirilgan mulklar majmuasidan tashkil topadi. Xususiy va kollektiv o‘rtoqchilik mulklari asosida tashkil etilgan korxonalarda ustav kapitali ta‘sischilarning pay va badallaridan iborat bo‘ladi. Aksionerlik jamiyatlarida ustav kapitali chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig‘indisidan tashkil topadi.

- Ustav kapitaliga ta‘sischilarning hissalarini uzoq va qisqa muddatli aktivlar bilan, ya‘ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital va moliyaviy investitsiyalar, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag‘lari bilan, kiritilishi mumkin.

- Ta‘sischilarning ustav kapitalidagi hissalarini korxonaning sof foydasini hissali usulda taqsimlashga, aksiyalarning soni esa sof foydani ularning har

biriga mos ravishda taqsimlashga asos bo'lib hisoblanadi. Davlat korxonalarida sof foyda taqsimlanmaydi va ustav kapitalining miqdorini oshirishga yo'naltiriladi.

Ustav kapitali bo'yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Ustav kapitalini korxonalarining ta'sis etilgan kuniga aks ettirish;
- Ta'sischi tomonidan o'z ulushlarini belgilangan muddatlarda kiritilishi ustidan nazorat o'rnatish;
- Ustav kapitalidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish;
- Chet el investorlari tomonidan chet el valyutasida kiritilgan mablag'lar bo'yicha valyuta kurslari o'rtasidagi farqlarni to'g'ri hisobga olish;
- Ta'sischi bilan olinadigan dividendlar va ularning hissalarini bo'yicha hisob-kitoblarni to'g'ri olib borish;
- Ustav kapitaliga doir ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish va boshqalar.

21- son BHMS ga muvofiq ustav kapitalining hisobi quyidagi schyotlarda olib boriladi:

- 8300 « Ustav kapitali» – *davlat korxonalarida;*
- 8310 «Oddiy aksiyalar»,
- 8320 «Imtiyozli aksiyalar» – *aksionerlik jamiyatlarida*
- 8330 «Pay va badallar» – *xususiy va kollektiv o'rtoqchilik korxonalarida (xususiy savdo va ishlab chiqarish korxonalarida, ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda, qo'shma korxonalarida, xorijiy korxonalarida, sho'ba korxonalarida, qaram xo'jalik jamiyatlarida).*

Ushbu schyotlarning barchasi passiv schyotlar bo'lib, ularning kreditida ustav kapitalini vujudga kelishi va ko'payishi, debetida esa uning kamayishi aks ettiriladi.

Ustav kapitali korxonaga ta'sis etilgan sanada, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tgan sanada, vujudga keladi va u buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 4610 « Ta'sischi korxonaning ustav kapitaliga hissalarini bo'yicha qarzi»

Kredit 8300 «Ustav kapitali», 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar», 8330 «Pay va badallar».

Davlat korxonalari asosida tashkil qilingan aksionerlik jamiyatlarida oldingi mavjud ustav kapitali va yangi ustav kapitali o'rtasidagi farq gudvil deb atalib, nomoddiy aktiv sifatida hisobga olinadi va quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0480 «Gudvil»

Kredit 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Keyingi davrlarda korxonalarining ustav kapitalini ko'payishi ta'sischilar safini kengayishi yoki oldingi ta'sischilarning hissalarini oshirilishi, aksionerlik jamiyatlarida esa yangi aksiyalarning chiqarilishi yoki oldingi aksiyalarning nominal qiymati oshirilishi evaziga yuz beradi. Ustav kapitalining bunday yo'llar bilan ko'payishi ham yuqorida keltirilgan birinchi yozuv bilan hisobga olinadi. Davlat korxonalarida ustav kapitalini hisobot yilning sof foydasi evaziga ko'payishi quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 8710 «Hisobot yilning taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)»

Kredit 8300 «Ustav kapitali»

Ustav kapitalining kamayishi o'rtoqchilik jamiyatlarida ta'sischilarning hissalarini kamaytirilishi yoki ularni ta'sischilar safidan chiqarilishi, aksionerlik jamiyatlarida esa mavjud aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirilishi yoki aksiyalar sonini kamayishi evaziga yuz beradi. Davlat korxonalarida ustav kapitali summasi hisobot yilning qoplanmay qolingan zararlariga kamayadi.

Ustav kapitalini kamayishi hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

• Ta'sischilarning hissalarini kamaytirilganda yoki ayrim ta'sischilar o'z hissalarini bilan ta'sischilar qatoridan chiqib ketganda:

Debet 8330 «Pay va badallar».

Kredit 6620 «Chiqib ketgan ta'sischilarga ularning hissalarini bo'yicha qarz»

• Aksiyalarning nominal qiymatini pasaytirilganda yoki aksiyalar sonini kamaytirilganda:

Debet 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Kredit 6620 «Chiqib ketgan ta'sischilarga ularning hissalarini bo'yicha qarz»

- Davlat korxonalarida hisobot yilning zararlari qoplanganda

Debet 8300 «Ustav kapitali»

Kredit 8710 «“Hisobot yilning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”

Ustav kapitalining analitik hisobi korxonada ta’rischilar va aksionerlari bo‘yicha yuritiladi.

Aksionerlik jamiyatlari va aksiya chiqargan ma’suliyati cheklangan jamiyatlar o‘zlarining xususiy aksiyalarini qayta sotish yoki ularni bekor qilish uchun qayta sotib olishlari mumkin. Sotib olingan bunday xususiy aksiyalarning hisobi 8610 «Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar» schyotlarida yuritiladi. Ushbu schyotlar mos ravishdagi 8310 «Oddiy aksiyalar» va 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyotlariga kontrpassiv schyotlar bo‘lib hisoblanadi, ya’ni ushbu schyotlarning summalari balansda alohida qatorda oldiga manfiy (-) belgini qo‘yish yoki qizil rang bilan yozish orqali aks ettiriladi. Demak, xususiy kapitalning balans qiymatini topishda hamma vaqt sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati, agar ular mavjud bo‘lsa, chegirib tashlanadi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar sotib olish vaqtida sotib olingan qiymatida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 8610 «Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

Kredit 5010 «Kassa», 5110 «Hisob-kitob schyoti» 6620 «Chiqib ketgan ta’rischilarga ularning hissasi bo‘yicha qarz»

Keyingi davrlarda sotib olingan aksiyalar qayta sotilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Sotib olish qiymatidan yuqori qiymatga qayta sotilgan aksiyalarga quyidagi yozuvlar qilinadi:

- Sotib olish qiymatiga

Debet 5010 «Kassa», 5110 «Hisob-kitob schyoti»

Kredit 8610 «Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

- Sotib olish qiymatidan ortiq qismiga

Debet 5010 «Kassa», 5110 «Hisob-kitob schyoti»

Kredit 9590 « Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar»

Sotib olish qiymatidan past qiymatga qayta sotilgan aksiyalarga quyidagi yozuvlar qilinadi:

- Sotib olish qiymatiga

Debet 5010 «Kassa», 5110 «Hisob-kitob schyoti»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

- Sotib olish qiymatidan past qismiga

Debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa harajatlar»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

Nominal qiymatidan yuqori qiymatga sotib olingan aksiyalar bekor qilinganda quyidagi yozuvlar qilinadi:

- *Sotib olish qiymatiga*

Debet 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

- *Sotib olish qiymatidan ortiq qismiga*

Debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlar», 8410 «Emission daromad»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar».

Sotib olish qiymatidan past qiymatga qayta sotib olingan aksiyalar bekor qilinganda quyidagi yozuvlar qilinadi:

- *Sotib olish qiymatiga*

Debet 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

- *Sotib olish qiymatidan past qismiga*

Debet 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar»

Hususiy kapitalning tarkibiy elementi bo'lgan qo'shilgan kapital quyidagi ikkita holatda vujudga kelishi mumkin:

- Korxonalar aksiyalari nominal qiymatidan yuqori qiymatga sotilganda. Ushbu holatda sotish va nominal qiymatlar o'rtasida vujudga kelgan farq emissiya daromadi deb ataladi. Ushbu daromad qo'shilgan kapitalni tashkil etadi va maxsus 8410 "Emission daromad" schyotining kreditida pul mablag'lari schyotlarining (5010, 5110 va boshqalar) debeti bilan korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi. Emission daromad korxonalarining soliqqa tortiladigan daromadiga kiritilmaydi. Kelgusida emission daromad aksiyalarni nominal qiymatidan past qiymatda sotishdan ko'rilgan zararlarni, shuningdek sotib olingan xususiy aksiyalarini bekor qilishdan ko'rilgan zararlarni qoplash uchun ishlatiladi. Ushbu operatsiyalar "8410 "Emission daromad" schyotining debetida, shuningdek 8610 "Sotib olingan oddiy xususiy aksiyalar", 8620 "Sotib olingan imtiyozli xususiy aksiyalar" schyotlarining kreditida aks ettiriladi. Emission daromad sifatida to'planib qolgan qo'shilgan kapital faqatgina korxonalar tugatilishida taqsimlanmagan foydaga qo'shiladi va ta'sischi o'rtasida taqsimlanadi.

- Ustav kapitalini shakllantirish davrida valyuta kursalari o'rtasida farq vujudga kelganda. Bunday qo'shilgan kapital, odatda, chet el investitsiyasi kiritilgan qo'shma korxonalarda mavjud bo'lishi mumkin. Ustav va ta'sis shartnomasiga muvofiq chet el investorining qo'shma korxonaning ustav kapitaliga hissasi korxonaning davlat ro'yxatidan o'tgan sanasidagi rasmiy kurs bilan baholanadi. Shuning uchun chet el investori tomonidan hissasi haqiqatda kiritilishi vaqtida vujudga kelgan valyuta kurslari o'rtasidagi ijobiy va salbiy farqlar ustav kapitaliga tegishli bo'lmaydi va ular qo'shma korxonada alohida 8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o'rtasidagi farq" schyotida hisobga olinadi.

Valyuta kurslari o'rtasida vujudga kelgan ijobiy farq, bir tomondan, investorning hissasi sifatida kiritilgan uzoq va qisqa muddatli aktivlarning ( asosiy

vositalar, nomoddiy aktivlar, TMB, pul mablag‘lari) qiymatiga qo‘shiladi (ya‘ni 0110-0190, 0410-0490, 1010-1090, 2810, 2910-2990, 5010, 5110, 5210, 5210 va boshqa schyotlar debetlanadi), ikkinchi tomondan, qo‘shilgan kapital sifatida tan olinadi va 8420 “Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o‘rtasidagi farq” schyotining kreditida aks ettiriladi. Xuddi emission daromadga o‘xshab, valyuta kurslari o‘rtasidagi ijobiy farqlar evaziga vujudga kelgan ushbu qo‘shilgan kapital ham soliqqa tortiladigan daromadga kiritilmaydi, u faqatgina korxonaga tugatilishida taqsimlanmagan foydaga qo‘shiladi va ta‘sischilar o‘rtasida taqsimlanadi.

Agar yualyuta kurslari o‘rtasida salbiy farq vujudga kelsa, u holda ushbu farq 8420 “Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o‘rtasidagi farq” schyotining debetida va 4610 « Ta‘sischilarning ustav kapitaliga hissalarini bo‘yicha qarzi» schyotining kreditida aks ettiriladi. Kurslar o‘rtasidagi vujudga kelgan salbiy farq korxonaning zarariga olib boriladi va uning umumho‘jalik faoliyatidan olingan foydasidan qoplanadi. Ushbu zarar 8420 “Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o‘rtasidagi farq” schyotining kreditida va 9620 « Valyuta kurslari farqida ko‘rilgan zararlar» schyotining debetida aks ettiriladi.

Qo‘shilgan kapitalning analitik hisobi ta‘sischilar va aksiyalarning turlari bo‘yicha olib boriladi.

Rezerv kapitali – bu korxonaning turli maqsadlarida va turli manbalar evaziga shakllantirilgan xususiy kapitalining bir turi. Ushbu kapital asosan quyidagi manbalar hisobidan vujudga keladi:

- Mavjud mulkni qayta baholash natijasida paydo bo‘ladigan yangi qiymat evaziga. Tasdiqlangan Nizomga ko‘ra korxonalar har yilning oxirida o‘zlarining asosiy vositalarini, tugallanmagan qurilish ob‘ektlarini qayta baholaydilar. Qayta baholashda asosiy vositalarning oldingi boshlang‘ich qiymati va jamlangan eskirishi real bozor baholaridan kelib chiqqan holda ko‘payish yoki kamayish tomonlariga o‘zgartirilishi mumkin.

- Agar o‘zgartirishlar o‘shish tomonga yuz bergan bo‘lsa, o‘rtadagi ijobiy farq rezerv kapitalini vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. 21-son BHMS ga muvofiq qayta

baholash evaziga vujudga kelgan rezerv kapitalining hisobi maxsus 8510 “Mulkn qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotining kreditida va mos asosiy asosiy vositalar schyotlarining (0110-0190) debetida aks ettiriladi. Asosiy vositalarning jamlangan eskirishini o‘shish tomonga o‘zgartirilishi 8510 “Mulkn qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotining debetida va mos asosiy asosiy vositalar eskirishlari schyotlarining

(0210-0290) kreditida aks ettiriladi. 8510 “Mulkn qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotining kredit oboroti va debet oboroti summalari o‘rtasidagi ijobiy farq balansda qayta baholashdan vujudga kelgan maxsus rezerv kapitali sifatida aks ettiriladi. Agar qayta baholash natijasida ushbu schyotning debet oboroti kredit oboroti summasidan katta bo‘lsa, u holda korxon qayta baholashdan zarar ko‘rgan bo‘ladi va u 9430 “Boshqa operatsion harajatlar” schyotining debetida va 8510 “Mulkn qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotining kreditida aks ettiriladi. Mulkn qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali korxon tugatilganda ta‘sischilarning hissalariga mos ravishda taqsimlanadi, bunga debet 8510 “Mulkn qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyoti va kredit 6620 “Chiqib ketgan ta‘sischilarga ularning hissalar bo‘yicha qarz” schyoti kreditlanadi.

•Korxonaning sof foydasi hisobidan. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va ta‘sis hujjatlariga muvofiq korxonalar o‘zlarining sof foydasi evaziga rezerv kapitalini shakllantirishlari mumkin. Rezerv kapitaliga qilingan ajratmalar debet 8710 “Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” va kredit 8520 “Rezerv kapitali” schyotining kreditida aks ettiriladi. Shakllangan rezerv kapitali korxonalarda turli maqsadlarda, jumladan aksionerlik jamiyatlarida imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash uchun, hisobot yilda ko‘rilgan zararlarni qoplash uchun va boshqa maqsadlarda ishlatiladi. Rezerv kapitalini ishlatilishi 8520 “Rezerv kapitali” schyotining debetida va 6610 “To‘lanadigan dividendlar”, 8710 “Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” va boshqa schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

•Qaytarib bermaslik sharti bilan kelib tushgan mulk evaziga. Bunday yo‘l bilan vujudga kelgan rezerv kapitali 8530 “ Bepul olingan mulk” schyotining kreditida va kelib tushgan mulkni aks ettiruvchi schyotlarning ( 0110-0190, 0710-0720, 0610, 0800, 1000, 5810 ) debetida aks ettiriladi. Soliq Kodeksiga muvofiq bepul kelib tushgan mulklar bitta tizim korxonalarida yuqori tashkilotning qarori bilan balansdan balansa o‘tqazish tarzida amalga oshirilgan bo‘lsa, daromad solig‘iga tortilmaydi. Boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda bepul kelib tushgan mulk ularning yalpi daromadiga kiradi va soliqqa tortiladi.

Rezerv kapitali schyotlari bo‘yicha analitik hisob uning turlari va tashkil topish manbalariga qarab yuritiladi.

## **2. Maqsadli tushumlarning hisobi**

Korxonalarining xususiy kapitaliga unga turli manbalardan kelib tushgan maqsadli tushumlar ham kiradi. Maqsadli tushumlarning asosiy turlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

•*Grantlar* - bu korxonaga qaytarib olinmaslik sharti bilan davlat, nodavlat, xalqaro tashkilot va fondlardan aniq maqsadlar uchun kelib tushgan moddiy va nomoddiy mablag‘lar majmuasi. Ushbu mablag‘lar faqatgina qat‘iy maqsadlarga ishlatilishi lozim. 21-son BHMS ga muvofiq grantlarning hisobi 8810 «Grantlar» schyotida olib boriladi. Grantlarning olinishi va kelib tushishi ushbu passiv schyotning kreditida mablag‘larni aks ettirishga mo‘ljallangan schyotlarning (0110-0190, 0410-0490, 0610, 5810, 1010-1090, 2810, 2910-2990, 5010, 5110, 5210, 4890 va boshqa schyotlar) debeti bo‘yicha korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi.

Olingan grantlarning ishlatilishi grantlar asosida faoliyat ko‘rsatayotgan nodavlat tashkilotlarida 8810 «Grantlar» schyotining debetida va harajatlar schyotlarining (2010, 2310, 2510, 9420, 9430 va boshqalar) kreditida aks ettiriladi. Xo‘jalik yurituvchi korxonalarda olingan grantlar ustav kapitaliga va rezerv kapitaliga qo‘shilishi mumkin. Bunday hollarda 8810 «Grantlar» schyoti debetlanadi va 8300 «Ustav kapitali», 8530 «Bepul olingan mulk» schyotlari

kreditlanadi. Grantlarning analitik hisobi ularning turlari va maqsadlari bo'yicha yuritiladi.

• *Subsidiyalar* – bu korxonaga uning faoliyatini rivojlantirish maqsadida ma'lum bir shartlarga ko'ra davlat tomonidan pul va moddiy aktivlar bilan berilgan yordam summasi. Subsidiyalarning hisobi maxsus 10-son BHMS « Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordamini tavsifi», shuningdek 21- son BHMS ga asoslanib yuritiladi. Ushbu me'yoriy hujjatlarga muvofiq olingan subsidiyalarning kelib tushushi 8820 «Subsidiyalar» schyotining kreditida mablag'larni aks ettirishga mo'ljallangan schyotlarning (0110-0190, 0410-0490, 0610, 5810, 1010-1090, 2810, 2910-2990, 5010, 5110, 5210 ,4890 va boshqa schyotlar) debeti bo'yicha korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi. Olingan subsidiyalar ustav kapitaliga va rezerv kapitaliga qo'shilishi mumkin. Bunday hollarda 8820 «Subsidiyalar» schyoti debetlanadi va 8300 «Ustav kapitali», 8530 «Bepul olingan mulk» schyotlari kreditlanadi.

• *A'zolik badallari* – bu jamiyatning ta'sis hujjatlariga muvofiq belgilangan a'zolik badallari summasi. 21-son BHMS ga muvofiq a'zolik badallarining hisobi 8830 “A'zolik badallari” schyotining kreditida va pul mablag'lari schyotlarining (5010, 5110, 5210 ) debetida aks ettiriladi. Yig'ilgan a'zolik badallari jamiyatning faoliyatini rivojlantirishga sarflanadi. Jamiyat tugatilganda to'plangan a'zolik badallari uning qarzlari qoplashga yo'naltiriladi.

• *Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari*- bu davlat qonunlari asosida korxonani maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliqlardan ozod etish natijasida to'plangan mablag'lar majmuasi. Ushbu maqsadli tushumlarning hisobi maxsus Nizomga, shuningdek 21- son BHMS ga muvofiq 8840 “Maqsadli ishlatishga doir soliq imtiyozlari” schyotida yuritiladi. Ushbu imtiyozlar ga ega xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliqlarni Soliq Kodeksi va ularga doir yo'riqnomalar asosida hisoblaydilar. Hisoblangan soliq summasi korxonada qoldirilganda quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 6410 “ Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)”

Kredit 8840 “ Maqsadli ishlatishga doir soliq imtiyozlari”

Soliq imtiyozlari ma'lum muddatga berilgan bo'lsa, ushbu muddat tugagach, boshqa hollarda esa hisobot yilning oxirida maqsadli ishlatishga doir berilgan soliq imtiyozlari korxonaning rezerv kapitaliga qo'shiladi va unga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 8840 "Maqsadli ishlatishga doir soliq imtiyozlari"

Kredit 8530 "Bepul olingan mulk"

Soliq imtiyozlari sifatida olingan maqsadli tushumlarning analitik hisobi soliq to'lovlari turlari bo'yicha olib boriladi.

• *Boshqa maqsadli tushumlar*- bu turli yuridik va jismoniy jaxslardan ma'lum maqsadlar uchun olingan mablag'larning majmuasi. Ularga, masalan, ota – onalarning bolalar bog'chasi uchun to'lovlari, boshqa korxonalardan tushgan mablag'lar va boshqalar kiradi. 21-son BHMS ga muvofiq boshqa maqsadli tushumlarning hisobi 8890 "Boshqa maqsadli tushumlar" schyotining kreditida va pul mablag'lari schyotlarining debetida aks ettiriladi. Ushbu schyotning debetida maqsadli tushumlarning ishlatilishi aks ettiriladi, masalan, xizmat qiluvchi xo'jaliklar ning harajatlarini bir qismi ushbu maqsadli tushumlar hisobidan qoplanganda 8890 "Boshqa maqsadli tushumlar" schyoti debetlanadi va 2710 "Xizmat qiluvchi xo'jaliklar" schyoti kreditlanadi. Ishlatilmay qolingan boshqa maqsadli tushumlar korxonalarining rezerv kapitaliga yoki boshqa daromadlariga olib boriladi, yani:

Debet 8890 "Boshqa maqsadli tushumlar"

Kredit 8530 "Bepul olingan mulk", 9390 "Boshqa operatsion daromadlar"

Boshqa maqsadli tushumlarning analitik hisobi ularning turlari va manbalari bo'yicha yuritiladi.

### **3. Kutilayotgan harajatlar va to'lovlar uchun rezervlarning hisobi**

Korxonalar o'zlarining yaqin kelajakda kutilayotgan harajatlari va to'lovlari uchun , masalan joriy va kapital ta'mirlash uchun, xodimlarga mehnat ta'tili hisoblash uchun va boshqalar uchun, rezerv tashkil qilishlari mumkin. Bunday rezervni tashkil etishdan asosiy maqsad bo'lib kutilayotgan harajat va to'lovlarni

hisobot yili oylari bo'yicha teng taqsimlab borish hisoblanadi. Rezerv tashkil qilishning me'yorlari va tartibi korxonaning hisob siyosatida belgilangan bo'lishi lozim. Tashkil etilgan rezerv korxonaning harajatlariga olib boriladi va u quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiriladi:

Debet 2010, 2310, 2510, 2710, 9420, 9430 (harajatni aks ettiruvchi schyotlar)

Kredit 8910 "Kutilayotgan harajatlar va to'lovlar uchun rezervlar"

Rezervning ishlatilishi 8910 "Kutilayotgan harajatlar va to'lovlar uchun rezervlar" schyotining debetida va qilingan sarflarni aks ettiruvchi schyotlarning (1010-1090, 6710, 6520, 6890, 2310, 2510, 2710 va boshqalar) kdebitida aks ettiriladi. Ishlatilmay qolgan rezerv summasi hisob siyosatida ko'zda tutilgan tartibga ko'ra kelgusi yilga o'tqazilishi, shuningdek harajatlarni kamaytirishga olib borilishi yoki korxonada daromadiga olib borilishi mumkin, ya'ni:

Debet 8910 "Kutilayotgan harajatlar va to'lovlar uchun rezervlar"

Kredit 2010, 2310, 2510, 2710, 9420, 9430, 9390

Rezervlarning analitik hisobi ularning turlari bo'yicha yuritiladi.

#### **4. Kapital va maqsadli tushumlar auditi.**

Ustav kapitali shakllanishining tekshiruvi vaqtida Ustav kapitali o'z vaqtida, ya'ni uning belgilangan muddatlarda shakllanganligi, e'lon qilingan kirim badali to'liq kiritilganligi va shakllanish manbalari aniqlanadi.

Ustav kapitalining tekshiruvida auditor uning summasi haqiqatda to'liq shakllanganligiga ishonch hosil qilishi kerak. U buxgalteriya balansida va 5-sonli "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" da aks etiladi.

Auditor xo'jalik yurituvchi sub'ekti davlat ro'yxatiga olingan sanasi bilan ushbu korxonaning buxgalteriyasida e'lon qilingan Ustav kapitali miqdori summasiga "Ustav kapitalga ulushlari bo'yicha ta'sischilarning qarzlari" schetining debeti va "Ustav kapitali"ni schetining kreditida aks ettirilishini nazarda tutishi lozim.

Agar, tekshirish vaqtida "Ustav kapitalga ulushlari bo'yicha ta'sischilarning qarzlari" schetining debetida qoldiq summasi bo'lsa, bu ta'sischilar tomonidan

Ustav kapitaliga o'z badallarini kiritilmaganligini ifodalaydi. Bunday korxonalar ta'sis etilmagan (tashkil topmagan) deb hisoblanadi va tugatilishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning Ustav kapitaliga badal sifatida binolar, inshootlar, jihozlar va boshqa moddiy boyliklar, nomoddiy aktivlar, qo'shma korxonalar ishtirokchilari xorijiy davlatlarining pul mablag'lari ko'rinishidagi valyutalar va erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta sifatida kiritilishi mumkin.

Auditor ta'sischi tomonidan kiritilgan badallarni dastlabki hujjatlar asosida pul mablag'lari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish zahiralari va boshqalarni hisobga olish schetlarining debeti bilan korrespondensiyalangan Ustav kapitali badallar bo'yicha ta'sischi tomonlarning qarzi schetning kreditidagi yozuvlari asosida tekshiradi.

Masalan, kiritilgan kassa orderlari, dastlabki hujjatlar ilova qilingan bankning hisob-kitob va valyuta schetlaridan ko'chirmalar asosida ta'sischi tomonlarning badali hisob-kitob va valyuta schetlariga to'liq va o'z vaqtida kiritilganligi tekshiriladi.

Ta'sis hujjatlarida qayd etilgan va Ustav kapitaliga badal sifatida kiritilgan moddiy boyliklar, nomoddiy aktivlar ta'sischi tomonlarning kelishuvi bo'yicha aniqlanadi va (kelishilgan qiymatda) baholanadi. Ustav kapitaliga badal sifatida kiritilgan qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlar ta'sischi tomonlarning kelishuviga asosan baholanadi.

Ustav kapitaliga yoki aksiyalarni to'lash uchun haqiqatda kiritilgan moddiy boyliklar, nomoddiy aktivlar jamiyat aktiviga o'tkazish davrida amalda bo'lgan bozor narxlari bilan baholanadi.

Bozor narxlariga ega bo'lmagan nomoddiy aktivlar ta'sischi tomonlarning kelishuvi bilan baholanadi. Ushbu obektlarni baholash, odatda, baholovchi mutaxassislariga topshiriladi.

Ustav kapitaliga badal sifatida amalda kiritilgan valyuta va valyuta boyliklari, jamiyatga kiritilishi vaqtida amalda bo'lgan rasmiy kurs bo'yicha baholanadi.

Qimmatli qog'ozlar oxirgi birja kursi bo'yicha baholanadi.

Moliyaviy aktivlar va birjada kotirovkaga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlar tomonlarning kelishuviga asosan baholanadi. Murakkab sharoitlarda hamda amaldagi

qonunchilik talab qilganda, Ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilgan aktivlarning to'g'ri baholanishi mustaqil auditor xulosasi bilan tasdiqlanadi.

Ulush sifatida Ustav kapitaliga amalda kiritilgan moddiy va valyuta boyliklari, nomoddiy va moliyaviy aktivlarning baholanishi ularni ta'sis hujjatlari va dastlabki kelishuvlardagi baholanishidan farq qilishi mumkin.

Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, ma'lumotlar, nomoddiy aktivlar kelib tushishini tasdiqlovchi hujjatlar va asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish schetlarining debet aylanmalariga asosida o'tkazilgan uskunalar, binolar, inshootlar, intellektual mol-mulkga egalik huquqlarining qiymati aniqlanadi. Materiallarni qabul-qilish dalolatnomalari, tovar-transport yuk xatlari, ishlab chiqarish zahiralari hisobga olish bo'yicha schetlari ma'lumotlariga ko'ra kelib tushgan moddiy boyliklar qiymati aniqlanadi.

Har bir qo'yilma, Ustav kapitalini shakllantirish tartibiga ilova qilingan hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim. Bundan tashqari, Ustav kapitaliga badal sifatida kiritilayotgan mablag'larning alohida turlari ta'sischi - jismoniy shaxslarning shaxsiy mulk egaligini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lishi lozim. Bularga, masalan, xususiylashtirilgan xonadon, transport vositalari va boshqalar kiradi. Shunday qilib, auditor ta'sischi kiritgan badallarga oid ularning har biri bo'yicha yuritiladigan varaqalar yoki qaydnomalarda aks ettirilgan badallar bo'yicha qarzlarni, to'langan muddatlari, kiritilgan aktivlar summasi va qarzlarni qoplanish bo'yicha tahliliy hisobni tekshiradi.

Auditor nisbatan yangi hisoblangan mablag'lar - ta'sischi tomonidan kiritilgan nomoddiy aktivlar ro'yxatdan o'tkazilishi, texnikaviy tomonlariga alohida e'tiborni qaratishi lozim. Bular yangiliklarni yaratish va an'anaviy mol-mulkning boshqa obektlari, yer va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar, broker o'rinlari, savdo belgilari yoki emblemalari va boshqalar bilan foydalanish uchun mulkiy huquqlardir.

Hisobda nomoddiy aktivlar, kerak bo'lsa ekspertlar ishtirokida belgilangan shartnomaviy narxlar bilan baholanadi. Ayrim hollarda, barcha ta'sischi bilan

kelishilmagan holda, ayrim jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan boyliklar qismi, amaldagi narxlar bo'yicha emas, garchi ular bunday bahoga loyiq bo'lmasa ham, ko'p marotaba qimmatroq baholaydilar.

Shu bois, nomoddiy boylik qanday baholanganligini aniqlash kerak, masalan, agar u ilmiy izlanish bo'lsa eskirib qolmaganmikin? Ushbu aktivlar ko'p holatlarda moddiy tarkibga ega bo'lmaganligi munosabati bilan, korxonaga nomoddiy aktivlarning u yoki bu obekti amalda kelib tushishi yuzasidan nazorat qilish masalasi vujudga keladi.

YUqorida qayd etilgan vositalarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlariga ega bo'lishligiga qaramasdan, nomoddiy aktivlarning kelib tushishi tegishli hujjatlar shaklida amalga oshirilishi lozim. Bu qandaydir ma'lumotni, sanoat sur'atini, tarkibni va boshqalarni yorituvchi hujjatlar bo'lishi mumkin. Bunda, albatta, korxonaga nomoddiy aktivlarni kelib tushishini va eskirish muddatlarini aks etuvchi hujjat rasmiylashtirilishi lozim.

Ishtirokchilarning Ustav kapitaliga kirim qilingan badallari hisobda va balansda ular amalda kelib tushishi bo'yicha aks etiriladi. Korxonaning Ustav kapitaliga badalning amalda kelib tushish vaqti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

pul mablag'lari uchun - pullar kassa, hisob-kitob, valyuta schetiga kirim qilingan sanasi;

asosiy vositalar, moddiy va nomoddiy aktivlar uchun - asosiy vositalar, moddiy va nomoddiy aktivlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalar va ushbu obektlar kelib tushganligini tasdiqlovchi boshqa dastlabki hujjatlar rasmiylashtirilgan sanasi.

Korxonaga Ustav kapitaliga ta'sischi tomonidan kiritilgan badallarning to'liqligi uning ta'sis hujjatlarida qayd etilgan va Ustav kapitali hisobining schetlaridagi aks etilgan miqdorini Ustav kapitali badallar bo'yicha ta'sischi qarzi schetidagi miqdori bilan solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Ustav kapitalini tekshirish vaqtida buxgalteriya hisobida to'g'ri rasmiylashtirilganligi va 13-sonli jurnal-orderda Ustav kapitali hisobi bo'yicha

shetda qonuniy va to'g'ri aks etilganligi, ular amaldagi qonunchilikka muvofiq ekanligi aniqlanishi lozim.

Ta'sischiilar soni va ularning korxonalar Ustav kapitalidagi ulushlarini tekshirish vaqtida, auditor tegishli yuridik shaxs turi uchun ta'sischiilarning eng ko'p soni va har bir ta'sischiining Ustav kapitaliga kiritadigan eng ko'p ulushi hamda Ustav kapitalining eng kam miqdori amaldagi qonunchilik bilan belgilanishini unutmash kerak.

Ustav kapitali ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordan ko'p bo'lmasligi kerakligini qayd etish lozim. Shu bois, audit o'tkazishning eng muhim masalalaridan biri bo'lib Ustav kapitali miqdori barqarorlik tamoyiliga, ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorga muvofiqligini tekshirish hisoblanadi. Lekin, amaldagi qonunchilik va ta'sis hujjatlarida qayd etilgan holatlarda, uning oshirish yoki kamaytirish mumkin. Xususan, korxonaga yangi ishtirokchilarni qabul qilishda, ular tomonidan qo'shimcha badallar kiritishda yoki korxonalar faoliyati natijasida olingan foydaning bir qismi ustav kapital miqdorini oshirishga yo'naltirilganda bunday holatlar vujudga kelishi mumkin.

Ustav kapitalining taqsimlanmagan foyda hisobiga ko'payishi taqsimlanmagan foyda hisobi shetining debeti va Ustav kapitali hisobi shetlarining krediti bo'yicha aks ettiriladi, belgilangan tartibda qayta ro'yxatdan o'tgandan keyin.

Ustav kapitalining kamayishi Ustav kapitali hisobi shetlarining debeti va chiqib ketayotgan ta'sischiilarning badali bo'yicha shetining krediti bo'yicha aks ettiriladi, belgilangan tartibda qayta ro'yxatdan o'tgandan keyin.

Aksiyadorlik jamiyatlarida Ustav kapitali yangi aksiyalarni chiqarish (emissiya) yoki ularning nominal qiymatini oshirish hisobiga ko'paytirish mumkin, kamaytirish esa - aksiyalarni aksiyadorlardan qisman sotib olish yoki aksiyalarning nominal qiymati kamaytirish yoki ularni umumiy miqdori qisqarish hisobiga vujudga keladi. Shu bois, tekshirishni amalga oshirayotganda, auditor korxonaning Ustav kapitalida va ta'sis hujjatlarida sodir etilgan o'zgarishlar asosli ekanligini tekshirishi lozim.

Zarur bo'lganda Ustav kapital ta'sischilarning maqsadli qo'yilmalari hisobiga ko'payishi mumkin.

O'tkazilgan tekshiruv sifatli bo'lishining asosiy omili bo'lib, auditor ishtirokida kirish badali sifatida kiritilgan mol-mulk va nomoddiy aktivlarning inventarizatsiyasini amalga oshirish hisoblanadi. Amaliyotda ta'sischi tomonidan chiqarilgan aksiyalar summasidan ko'p bo'lgan aksiyalarni hisobga olish holatlari uchragan. Ayrim holatlarda, mol-mulk tarkibi hisobida yaroqsiz holga kelgan asosiy vositalar, buyumlar va xo'jalik asboblari yoki nomoddiy aktivlar hisobida - ma'naviy ahamiyatini yo'qotgan nou-xau hisobda aks ettirilishi kuzatiladi.

| №. | Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni  | Summa, ming so'mda | Buxgalteriya provodkasi |        |
|----|--|--------------------|-------------------------|--------|
|    |  |                    | debit                   | kredit |
| 1  | Ro'yxatdan o'tkazish paytida ta'sischilarning qarzi to'liq miqdorda aks ettiriladi | 70 000             | 4610                    | 8310   |
| 2  | AJ aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha sotilishi aks ettiriladi                | 10 000             | 5110                    | 4610   |
| 3  | Aksiyalar nominal qiymatidan yuqori narxda sotildi:                                |                    |                         |        |
|    | nominal qiymat summasiga   | 60 000             | 5110                    | 4610   |
|    | nominaldan yuqori summasiga  | 24 000             | 5110                    | 8410   |

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi odatda ta'sis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish paytidagi hamda valyuta va valyuta qiymatliklarini ustav kapitaliga amalda kiritish paytidagi valyutalar kurslarining farq qilishi natijasida paydo bo'ladi.

8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi" schyoti ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan. Ustav kapitalini shakllantirish uchun berilgan valyuta va valyuta qiymatliklari, ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha baholanadi. Valyuta va valyuta qiymatliklarini va boshqa mulklarni baholash ro'yxatdan o'tkazish sanasidagi ta'sis hujjatlarida belgilangan baholardan farq qilishi mumkin. Bunda vujudga kelgan kurs farqlari 8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi" schyotida hisobga olinadi. Baholardagi ijobiy kurs farqlari 8420 "Ustav kapitalini

shakllantirishda kurs farqi” schyotining kreditida, salbiy kurs farqlari esa mazkur schyotning debetida aks ettiriladi. Kurs farqlarini bu tartibda hisobdan chiqarilishi ta’sis hujjatlarida oldindan kelishilgan, ustav kapitalidagi ta’sischilarning ulushining o’zgarmasligiga imkon beradi.

8420 “Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi” schyoti bo’yicha analitik hisob har bir ta’sischi bo’yicha alohida yuritiladi.

Chet el valyutasida ustav kapitalining miqdori belgilangan taqdirda har bir muassis tomonidan ulushlar kiritilishi kiritish paytidagi Markaziy bank kursi bo’yicha amalga oshiriladi.

Ustav kapitalining miqdori chet el valyutasida belgilangan va legitim so’mlar bilan ustav sarmoyasiga ulush kiritilgan taqdirda qayta hisoblash ham ulush kiritilgan kunda Markaziy bank kursi bo’yicha amalga oshiriladi.

Auditor qayta baholash maqsadida tashkilotlarning asosiy fondlari deganda quyidagilar tushunishi lozim:

- a) o’zining asosiy vositalari;
- b) o’rnatish uchun mo’ljallangan uskunalar;
- v) qurilishi tugallanmagan obektlar;
- g) uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar, jumladan, uzoq muddatli lizing bo’yicha olingan asosiy vositalar.

Asosiy fondlarning qiymatini qayta baholash har yilda (joriy yilning 1 fevraliga) qayta baholash o’tkazilayotgan davridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda, 1 yanvar holatiga o’tkaziladi.

Agar qayta baholash natijasida mulklarning qiymati kamaysa, kamaygan summa o’sha mulkning navbatdagi qiymati oshishi hisobiga to’ldiriladi va u 8510 “Mulknini qayta baholash bo’yicha tuzatishlar” schyotining debetida aks ettiriladi. Shu mulkning avvalgi qayta baholashdagi qiymatidan oshgan arzonlashtirilgan summa xarajat sifatida tan olinadi va 9430 “Boshqa operasion xarajatlar” schyotida aks ettiriladi.

Auditor asosiy fondlarning har yilning 1 yanvari holatiga qaytadan baholash, obektlarni avvalgi qayta baholash natijasida olingan dastlabki (tiklanish)

qiymatidan, yil davomida kelib tushgan asosiy fondlar bo'yicha - sotib olish qiymatidan amalga oshirilishini unutmazligi kerak.

Er uchastkalari va tabiatidan foydalanish obektlari qayta baholanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS) "Asosiy vositalar" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 20 yanvarda 1299-son bilan ro'yxatga olingan) kuchga kirguniga qadar chiqib ketgan asosiy vositalar bo'yicha 8510 "Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida hisobga olingan chiqib ketgan asosiy vositalarning qayta baholash natijasi (qoldig'i), ya'ni ushbu asosiy vositalarni qayta baholashlar natijasida bahosi o'sishi summasining bahosi pasayishi summasidan oshgan summasi 8520 "Rezerv kapitali" schyotiga o'tkaziladi.

Shuning uchun, korxonalar va tashkilotlar 8510 "Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida hisobga olingan qayta baholash natijasi (koldiq)ni, ya'ni oldingi qiymat oshishi summasining oldingi qiymat pasayishi summasidan oshgan summasini ikki qismga: balansda hisobda bo'lgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi (koldiq)ga va 5-BHMSning yangi tahriri kuchga kirguniga qadar chiqib ketgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi (qoldig'i)ga bo'lishi lozim.

Rezerv kapitalini aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar va rezerv kapitalini shakllantirish respublikaning amaldagi qonun hujjatlari va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tuzadilar.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda, auditor xo'jalik yurituvchi sub'ektning tashkiliy-huquqiy shaklini va uning ta'sis hujjatlarini o'rganishi lozim. Aksionerlik jamiyatlar, Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar qonunning talablaridan kelib chiqqan holda jamiyat ustavida nazarda tutilgan, ammo ustav kapitalining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorda rezerv fondi tuzishi lozim. U jamiyatning Ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan majburiy ajratmalar (5 foizdan kam bo'lmagan miqdorda) o'tkazish orqali shakllantiriladi.

Jamiyatning rezerv fondi ko'rilgan zararni qoplash, jamiyat obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va

aksiyalarni sotib olishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish uchun mo'ljallanadi.

Rezerv kapitalining shakllanishi 8520 "Rezerv kapitali" schyotining kreditida 8710 "Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Auditorlik tekshiruv jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektda tekinga olingan mulklar qabul qilganligini tekshirish lozim. Tekinga qabul qilingan mulk hisobda ekspert yo'li bilan yoki topshiriladigan hujjatlar asosida aniqlangan qiymat bo'yicha aks ettirilishi lozim.

Tekinga olingan mulk xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliqqa tortiladigan bazasiga ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda tekshirishi lozim. Ushbu maqsadda korxonaga qaysi soliqqa tortish tizimida faoliyatini olib borayotganini aniqlanishi lozim.

Maqsadli moliyalashtirish mablag'larining holati va harakati, shuningdek a'zolik badallari va maqsadli yo'nalish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan boshqa qaytarilmaydigan mablag'larning kelib tushishi va sarflanishi, kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari to'g'risidagi axborotlarni auditor tomonidan tekshirilishi lozim.

Ushbu maqsadli tushumlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektning xususiy kapitali sifatida aks ettirish shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- a) mablag'larning maqsadli yo'nalish bo'yicha ishlatilishi;
- b) mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarning yo'qligi;
- v) belgilangan shartlar bajarilganda qaytarib berilmasligi.

Grant deganda ijtimoiy xususiyatga ega maqsadlar, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun Hukumat, nodavlat, xorijiy, hamda xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ko'rsatiladigan tekin, gumanitar yoki moddiy-texnik mablag'lar tushuniladi. Grant mablag'lari qat'iy ravishda belgilangan maqsadlarga ishlatiladi. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, auditor xo'jalik yurituvchi sub'ektning grant bo'yicha shartnoma shartlarini o'rganib chiqishi lozim.

Ajratilgan grant to'g'risida xabarnoma olinganda ushbu grant summasi 8810 "Grantlar" schyotining kreditida 4890 "Boshqa debitorlarning qarzi" schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Grant summasidan moliyalashtiriladigan va byudjetda ko'zda tutilgan pul mablag'lari yoki mulkning qabul qilinishi pul mablag'larini hisobga oluvchi schetlar (5110-5530), kapital qo'yilma (0800), o'rnatiladigan uskunalari (0700), TMZ va boshqa aktivlarni hisobga oluvchi schetlarning debetida 4890 "Boshqa debitorlarning qarzi" schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Chet el valyutasida olingan grant summasi xo'jalik muomalalari amalga oshirilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha milliy valyutaga o'tkaziladi.

Davlat subsidiyalari ular bilan bog'liq chiqimlarga kiritish uchun zarur bo'lgan davrlar mobaynida ular qoplaydigan joriy operatsiyalar bo'yicha muntazam asosda daromad deb hisoblanishi kerak.

Davlat subsidiyalarini maqsadli mablag'lar sifatida tan olinishi hisoblash usuliga ko'ra amalga oshiriladi.

Davlat subsidiyalari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarda ular bilan bog'liq chiqimlar (xarajatlar) bilan nisbatini belgilash uchun zarur bo'lgan hisobot davrlari mobaynida daromadlar deb e'tirof etiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar bilan bog'liq subsidiyalar odatda ana shu aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblanadigan hisobot davrlari mobaynida va nisbatlarda daromad deb hisoblanadi.

Muayyan shartlar va majburiyatlar bilan berilgan amortizatsiya qilinmaydigan aktivlar bilan bog'liq subsidiyalar mazkur majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq xarajatlar amalga oshiriladigan davrlar mobaynida daromad deb e'tirof etiladi.

Qilingan xarajatlar yoki ko'rilgan zararlar uchun kompensatsiya sifatida olinishi lozim bo'lgan yoki xo'jalik sub'ektiga, kelgusida u bilan hech qanday xarajatlarga bormagan holda, darhol moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida

ajratiladigan davlat subsidiyasi u olinishi kerak bo'lgan davrda daromad sifatida, shuningdek favqulodda modda sifatida e'tirof etiladi.

Davlat subsidiyasi xo'jalik sub'ekti tomonidan avvalgi davrda qilingan xarajatlar yoki ko'rilgan zararlar uchun kompensatsiya sifatida olinishi mumkin. Bunday subsidiya u olinishi kerak bo'lgan davrda daromad sifatida e'tirof etiladi.

Davlat subsidiyalarining hisobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 19 oktyabrda 52-son bilan tasdiqlangan (10-sonli BHMS) "Davlat subsidiyalarini hisobga olish va davlat yordamini ochish" Buxgalteriya hisobining milliy standartiga muvofiq amalga oshiriladi.

8830 "A'zolik badallari" schetida jamiyat a'zolarining ta'sis hujjatlarida belgilangan a'zolik badallari aks ettiriladi.

Jamiyat a'zolik badalini kassa usulidan kelib chiqqan holda hisoblashi mumkin lozim. A'zolik badallarining kelib tushishi 8830 "A'zolik badallari" schetining kredit tomonida pul mablag'larini hisobga oluvchi schetlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Auditor jamiyat tomonidan a'zolik badalining sarflanishi to'g'risida smetaga ega bo'lishi va ushbu smetaga binoan pul mablag'lari sarflanishi lozim.

8840 "Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari" schetida maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliq to'lashdan ozod qilingan summalar aks ettiriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektga hukumatning qarori bilan u yoki bu soliq turidan ozod qilingan bo'lishi mumkin. Biroq soliq summasi sub'ektning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish yoki operatsionn xarajatlarini qoplash uchun yo'naltirilishi mumkin. Bunday xo'jalik yurituvchi sub'ekt soliq turlari bo'yicha belgilangan muddatlarda davlat soliq inspeksiyasiga soliq deklaratsiyasini topshirishi shart.

Soliq to'lashdan ozod qilingan summalar byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi schetlarning debet tomonida 8840 "Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari" scheti bilan bog'langan hisobga olinadi.

Soliq to'lashdan ozod qilish natijasida vujudga kelgan summalar imtiyozli davr belgilangan holatda ushbu davr tugaguncha, qolgan holatlarda har yili 8840

“Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schetining debetidan 8530 “Tekinga olingan mulklar” schyotining kreditiga hisobdan chiqariladi.

Xarajatlar va to'lovlarni xarajatlarga bir maromda olib borish maqsadida o'rnatilgan tartibda rezerv qilingan summalarning holati va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 8900 “Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari” schyotida amalga oshiriladi.

Xarajatlarga qo'shiladigan summalarni rezervlash qonun hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizomi bilan tartibga solinadi.

Rezervlarni hisoblash muomalalari 8910 “Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari” schyotining kreditida va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi. Bunday rezervlarga misol bo'lib, ishchilarga mehnat ta'tili to'lash uchun rezerv, asosiy vositalarning kapital remonti uchun rezerv, kafolatlar bo'yicha rezerv va boshqalar misol bo'lishi mumkin. Rezervga ajratmalarning miqdori xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosatida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda, auditorning hisob siyosatini sinchkovlik bilan o'rganib chiqishi kerak.

Rezerv qilingan summalar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar va to'lovlar summasi rezervlar miqdorini kamaytirib 8910 “Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari” schyotining debetida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda hisobdan chiqariladi.

U yoki bu rezervning tashkil qilinishi va mablag'larning foydalanishi vaqti-vaqti bilan (yilning oxirida albatta) me'yor, hisoblar va boshqalarga asosan tekshirilib turiladi, zaruriyat tug'ilganda to'g'rilanadi.

8910 “Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari” schyoti bo'yicha analitik hisob har bir rezerv turlari bo'yicha alohida yuritiladi.

Ishtirokchilar tarkibini tahlil qilishda, aktsiyadorlik jamiyati va mas'uliyati cheklangan jamiyat yagona ishtirokchisi sifatida, bitta shaxsdan iborat xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'la olmasligiga e'tibor berishi kerak.

Aktsiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda ham yuridik shaxslar, ham jismoniy shaxslar ta'sischi sifatida ishtirok etishlari mumkin. Qo'shma korxonalar ustav kapitaliga o'zbekistonlik ishtirokchi tomonidan qo'shiladigan hissa xorijiy ishtirokchilar bilan kelishuvga ko'ra milliy valyutada qanday baholansa, kelishilgan baholar bo'yicha chet el valyutasida ham jahon bozoridagi bahoni hisobga olgan holda shunday baholanadi.

Xorijiy ishtirokchining hissasi ham shu tartibda qo'shma korxonani tashkil etish haqidagi shartnoma imzolangan kundagi yoki uning ishtirokchilari kelishgan boshqa sanaga amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy valyuta kursi bo'yicha so'mga hisoblab o'tkazish yo'li bilan baholanadi.

Korxonalar ta'sischilarining soni va ularning ustav kapitalidagi ulushini tekshirish chog'ida auditor ta'sischilarning eng ko'p soni va bir ta'sischi ustav kapitalidagi eng ko'p ulushi, hamda ustav kapitalining eng kam ko'lami tegishli yuridik shaxs uchun qo'llaniladigan Qonun bilan aniqlanadi. Masalan, «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlari (OTAJ) ustav kapitalining eng kam miqdori jamiyat ro'yxatdan o'tkazilgan paytda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan eng kam ish haqining ikki yo'z baravar summasidan kam bo'lmasligi, yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlari (YoTAJ) ustav kapitali esa jamiyat ro'yxatdan o'tkazilgan paytda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan eng kam ish haqining yo'z baravar summasidan kam bo'lmasligi kerak. (20-modda) Ushbu talablarga rioya qilinishi korxonaning faoliyat ko'rsatishi, hamda kreditorlarning manfaatlarini huquqiy va iqtisodiy himoyalash shartlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar sof aktivlari maqdorining uning ustav kapitalidan oshib ketishi (yoki teng bo'lishi) to'g'risidagi majburiy talablarga rioya qilinishi shu maqsadlardagina tekshiriladi.

## **XULOSA.**

Korxonalar, tashqilot yoki firma ochilish davrida o'z mablag'larini belgilab olishi lozim. Bu ish amalga oshirilgach esa mablag'larni kaysi manba hisobiga qoplash kerakligini ko'rib o'tiladi. Agarda korxonaning o'z mablag'lari yetarli bo'lsa, o'z mablag'lar manbai hisobiga aks holda esa qarz mablag'lari hisobiga qoplaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xar bir korxonalar o'z moliyaviy xarakterlarini o'zi mustakil kondirishi mumkin. Resurslarni tahminlash manbai bo'lib, uning foydasi, qimmat baho qog'ozlarini sotishdan kelgan tushum, aksionerlarning pay va boshqa to'lovlari, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari xamda konundan tashqari bo'lmagan holda kirim qilingan mablag'lar kiradi. Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxonalar tashqilotlar uchun xususiy kapital deb qaraladi. Xususiy kapital hisobi bozor iqtisodiyoti sharoitida muxim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning o'z kudratini darajasini kay darajada ekanligini bildiradi. Bunday taraflarni ehtiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 6-sessiyasida kabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida konun»da xam xususiy kapital hisobiga katta ehtibor berilgan. Uning 16- moddasiga ko'ra moliyaviy hisobotlar tarkibida 5-shakl «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» deb nomlanib, bu forma xar yili boshqa hisobotlarga qo'shilgan holda yuqori organlarga topshirilishi lozim.

Xususiy kapital taxlilining vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- Xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- Xususiy kapitalda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash;
- Uning o'zgarishiga tahsir etuvchi omillarni aniqlash va xakozolar kiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI**

### **1. O`zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.: O`zbekiston, 1998. 48b.
2. O`zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Norma maslaxatchi. – T.: Soliqqa oid qonun hujjatlari to`plami. 2008. №1.
3. «Buxgalteriya hisobi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 yil 30 avgust. Xalq so`zi. 1996 yil 12 sentyabr.
4. «Auditorlik faoliyati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni. (Yangi tahriri). O`zbekistonning Yangi qonunlari. – T.: Adolat, 2001. – 260 b.
5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori. 1999 yil 5 fevral № 54.

### **2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari**

6. «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to`lovlarni byudjetga to`lash bo`yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to`g`risida»gi Nizom 02.04.2005 y.
7. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to`g`risida Nizom». – T.: O`zR Qonun hujjatlari to`plami, 2006. 42 (230)-son.

### **3. Boshqa mehyoriy hujjatlar**

8. O`zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlari. O`zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi – T.: 2003. – 186 b.

### **4. O`zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari va mahruzalari**

9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. – T.: O`zbekiston - 2009. – 54 b.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiyalash qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir va asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir. – T.: O`zbekiston – 2010. – 77 b.

## **5. Kitoblar va darsliklar.**

11. Abdullaev A, Qayumov I. Buxgalteriya hisobi. – T.: «Minhoj».- 2002 y.
12. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. – T.: Moliya. 2002. – 672 b.
13. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Yakubov U.K. Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlilning xususiyatlari. O`quv qo`llanma. – T.:TMI, 2004. –148 b.
14. Gulyamova F.G. «Buxgalteriya hisobini mustaqil o`rganish uchun qo`llanma».T. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004 y.
15. Zavalishina I.A. «Yangicha buxgalteriya hisobi». T. 2004 y.
16. Karimov va boshqalar. «Buxgalteriya hisobi», T. SHarq, 2004 y.
17. Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. Monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008. – 152 b.
18. Ostanoqulov M. «Buxgalteriya hisobi nazariyasi», T. O`zbekiston, 1993 y.
19. Ochilov I., Azlarov D., Avloqulov A. Moliyaviy hisobi-2. O`quv qo`llanma. – T.: TMI, 2004. – 290 b.
20. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. – T.: G`ofur G`ulom 2008. – 252 b.
21. Xoshimov B.X. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: «SHarq», 2004.
22. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. – T.: «Moliya».- 2003
23. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005. – 320 b.

## **6. Internet saxifalari**

24. [www.finansexpress.uz](http://www.finansexpress.uz)
25. [www.pravo.eastink.uz](http://www.pravo.eastink.uz) (Iqtisodiy qonunlar to`plami)
26. [www.buhgalt.ru](http://www.buhgalt.ru)
27. [www.gcomim.uz](http://www.gcomim.uz)
28. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)